

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 133 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIYQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
STRUCTURE-PROPERTY RELATIONSHIP OF ORGANOSILICON MATERIALS: EVALUATION BASED ON THERMOGRAVIMETRIC ANALYSIS	116
Tosheva Dilfuza Farxodovna, Siddikov Ikrom Iminjonovich, Rakhimov Firuz Fazliddinovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI

Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna

Iqtisod fanlari o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqotda yashil iqtisodiyotga o'tishning samaradorligi va uning murakkab jihatlari tahlil qilingan. Unda yashil texnologiyalarni joriy etish, hukumat siyosati hamda iqtisodiy ta'sir kabi omillar orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining muvaffaqiyat omillari chuqur o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqotda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida yashil iqtisodiyotga o'tishning istiqbollari va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, iqlim, iqtisodiy imkoniyatlar, ekologik muammolar, issiqxona gazlari.

Abstract. This scientific study analyzes the effectiveness and challenges of transitioning to a green economy. It emphasizes that the success of this transition can be better understood through factors such as the implementation of green technologies, government policy, and economic impact. The paper also discusses the experience of developed countries and highlights the practical significance of adopting a green economy model for sustainable development.

Key words: green economy, climate, economic opportunities, environmental issues, greenhouse gases.

Аннотация. В данном научном исследовании анализируются эффективность и сложности перехода к зеленой экономике. Особое внимание уделено факторам, таким как внедрение зеленых технологий, государственная политика и экономическое воздействие, через которые можно глубже понять успех перехода к устойчивому развитию. Также рассматривается опыт развитых стран в сфере перехода к зеленой экономике и его практическая значимость.

Ключевые слова: зеленая экономика, климат, экономические возможности, экологические проблемы, парниковые газы.

KIRISH

Yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda butun dunyo miqyosida katta ilmiy, amaliy va ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi hamda ekologik muammolarning kuchayishi sharoitida barqaror va ekologik xavfsiz iqtisodiy amaliyotlarga o'tish zaruratini chuqur anglab yetmoqdalar.

Ushbu jarayonning samaradorligini baholashda bir qator omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, biznes va sanoat subyektlari tomonidan yashil texnologiyalar hamda ekologik toza ishlab chiqarish amaliyotlarini joriy etish darajasi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Kompaniyalar tomonidan qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda uglerod izini kamaytirish yo'lidagi sa'y-harakatlar ularning barqaror rivojlanishga sodiqligini ifodalaydi. Bu esa, o'z navbatida, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining umumiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, hukumat siyosati va normativ-huquqiy bazaning roli ham beqiyosdir. Yashil iqtisodiyot amaliyotlarini rag'batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar mavjudligi, shuningdek, ekologik talablarni bajarmagan subyektlarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llash tizimi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan subyektlar uchun aniq me'yoriy asos yaratadi hamda yashil o'zgarishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga turtki bo'ladi.

Bundan tashqari, aholining ekologik savodxonligini oshirish va jamoatchilik qo'llab-quvvatlashini ta'minlash ham yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida hal qiluvchi omil sanaladi. Aholining keng qatlamlari barqaror rivojlanishning mohiyati va ahamiyati haqida yetarli bilimga ega bo'lishi, shuningdek, har bir fuqaro o'z hayot tarzida ekologik mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishi zarur. Jamiyatning faol ishtirokisiz yashil iqtisodiyotning to'laqonli shakllanishi mumkin emas.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash ham muhim masalalardan biridir. Bu borada yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy korxonalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik me'yorlarga moslashtirish kabi ko'rsatkichlar alohida e'tiborga olinadi.



Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sish o'rtasida muvozanatni saqlash orqali yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni, balki uzoq muddatli iqtisodiy farovonlikni ham kafolatlaydi.

Shu tariqa, yashil iqtisodiyotga o'tishning muvaffaqiyati hukumat siyosatining samaradorligi, texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish, jamoatchilik ongini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash omillariga bevosita bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o'tishning samaradorligi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u biznes, davlat va fuqarolik jamiyatining uzviy hamkorligini talab etadi. Ushbu o'tish jarayonida yashil texnologiyalarni joriy etish, hukumat siyosatining izchilligi, jamoatchilik xabardorligi hamda iqtisodiy ta'sirni to'g'ri baholash kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu omillarni kompleks tahlil qilish orqali yashil iqtisodiyotga o'tishning muvaffaqiyat darajasini yanada chuqurroq anglash va samarali boshqarish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot tushunchasi so'nggi o'n yilliklarda global miqyosda ilmiy va amaliy tadqiqotlarning markazida turibdi. Bu yo'nalishning dolzarbligi, bir tomondan, iqlim o'zgarishi, resurslarning kamayib borishi va ekologik inqiroz bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy o'sishni barqaror va ekologik xavfsiz asosda davom ettirish zarurati bilan izohlanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 2011-yildagi "Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication" nomli hisobotida yashil iqtisodiyot "tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavflarni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy tizim" sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rif ko'plab mamlakatlar uchun milliy strategiyalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Jozef Stiglitz (2015) va Nikolas Stern (2016) kabi iqtisodchilar yashil iqtisodiyotni barqaror o'sishning yangi modeli sifatida ko'rib, uni "uglerod neytral" iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy mexanizmi deb baholaydilar. Ularning fikricha, yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki innovatsiyalarni, yangi ish o'rinlarini va raqobatbardoshlikni ham rag'batlantiradi.

OECD (2018) va Jahon banki (2020) hisobotlarida yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy foydalari alohida ta'kidlanadi. Jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushining ortishi, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish natijasida YAIM o'sishi, sog'liqni saqlash xarajatlarining kamayishi va mehnat unumdorligining oshishi kuzatiladi.

O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyot masalalari keng o'rganilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PF-4477-son Farmoni bilan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2030" tasdiqlanib, bu yo'nalishda huquqiy va institutsional asoslar mustahkamlandi. Shuningdek, S.S. G'ulomov (2021), R.O. Alimov (2020), U.T. Xayitmatov (2022) kabi olimlarning ilmiy ishlarida yashil iqtisodiyotning milliy iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi, energetika samaradorligini oshirish va ekologik menejment tizimini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Xalqaro tajribada Germaniya, Daniya va Yaponiya davlatlari yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli namunalari sifatida e'tirof etiladi. Germaniyaning "Energiewende" dasturi qayta tiklanadigan energiya ulushini 40 foizdan ortiq darajaga olib chiqdi; Daniyada energiya samaradorligini oshirish va chiqindisiz iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi ishlab chiqilgan; Yaponiya esa "Green Growth Strategy" orqali texnologik innovatsiyalarni ekologik siyosat bilan uyg'unlashtirdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tizimli tahlil, qiyosiy va deduktiv usullar asosida amalga oshirildi. Yashil iqtisodiyotga o'tish samaradorligini baholashda xalqaro tajribalar (Germaniya, Daniya, Yaponiya) O'zbekiston sharoiti bilan solishtirildi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Ekologiya vazirligi hamda BMT, OECD va Jahon banki hisobotlaridan foydalanildi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va amaliy kuzatuv natijalari tahlil qilinib, yashil iqtisodiyotning iqtisodiy va ijtimoiy omillarini aniqlash hamda ularni milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish zamonaviy davrning dolzarb ehtiyoji, shu bilan birga, tarixiy zarurat hamdir. Iqlim o'zgarishi, ifloslanish va resurslarning kamayib borishi bilan bog'liq global ekologik muammolar insoniyatni an'anaviy iqtisodiy modeldan voz kechib, barqaror rivojlanishga asoslangan yangi iqtisodiy tizimni shakllantirishga undamoqda. Ushbu o'tish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va yashash sifatini oshirish imkonini ham beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son <https://lex.uz/uz/docs/-4539502>



1. Real zarurat:

Ekologik muammolarning, jumladan, iqlim o'zgarishi, ifloslanish va tabiiy resurslarning qisqarishining kuchayib borishi yashil iqtisodiyotga o'tish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Qazilma yoqilg'ilarga asoslangan va resurslarni ortiqcha iste'mol qiluvchi an'anaviy iqtisodiy amaliyotlar uzoq muddatda barqaror emasligi ilmiy asosda isbotlangan. Shu bois, barqaror bo'lmagan faoliyat natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar haqida jahon miqyosida ortib borayotgan xabardorlik yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda.

2. O'tish istiqbollari:

Yashil iqtisodiyotga o'tish iqlim o'zgarishini yumshatishda, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishda va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, u havo va suv sifatini yaxshilash, ifloslanishni kamaytirish va barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali inson salomatligi va tabiiy ekotizimlarga foyda keltiradi. Yashil iqtisodiyot ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy manfaatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash orqali barqaror rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi: qayta tiklanadigan energiya, energiya tejamlorligi, chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik turizm va "yashil" infratuzilma sohalarida innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki mehnat bozorida yangi, yuqori malakali ish o'rinlari paydo bo'lishiga ham xizmat qiladi.

3. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi:

So'nggi yillarda dunyo miqyosida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi alohida e'tibor markazida bo'lib, ko'plab rivojlangan mamlakatlar bu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishgan. Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Skandinaviya davlatlari yashil texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish hamda chiqindilarni kamaytirish bo'yicha muvaffaqiyatli tajriba to'plagan. Bu davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hukumat siyosati, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot — bu uglerod chiqindilarini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va toza, qayta tiklanadigan energiya manbalariga tayanish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy iqtisodiy tizimdir. Shu bois, O'zbekistonning ham ushbu yo'nalishda izchil siyosat yuritishi, xalqaro tajribalarni o'rganishi va milliy sharoitga moslashtirishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi hamda ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tishni harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri — bu samarali siyosat va me'yoriy-huquqiy bazaning izchil amalga oshirilishidir. Hukumatlar qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror amaliyotlarni keng joriy etishga yo'naltirilgan qonun va qoidalarni qabul qilish orqali barqaror rivojlanishning mustahkam poydevorini yaratmoqda. Shu tariqa, davlat siyosatining izchil va tizimli yuritilishi yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning yana bir muhim jihati — qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasiga sarmoya kiritishdir. Rivojlangan mamlakatlar qazilma yoqilg'ilarga bo'lgan qaramlikni kamaytirish maqsadida shamol, quyosh va gidroenergetika kabi ekologik toza energiya texnologiyalariga katta hajmdagi investitsiyalar yo'naltirmoqda. Ushbu yondashuv energiya xavfsizligini mustahkamlash bilan bir qatorda, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim tarkibiy qismi sifatida barqaror transport tizimlarini rivojlantirishda ham sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan. Bu jarayon elektr transport vositalarini keng joriy etish, jamoat transporti tarmoqlarini modernizatsiya qilish, hamda velosiped va piyodalar uchun qulay infratuzilmani shakllantirishni o'z ichiga oladi. Natijada, transport sohasida chiqindilar kamayib, energiya samaradorligi ortmoqda va shaharlarning ekologik holati yaxshilanmoqda.

Qayta tiklanadigan energiya va barqaror transport sohalaridan tashqari, rivojlangan mamlakatlar aylanma iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish hamda chiqindilarni boshqarishning samarali tizimlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Aylanma iqtisodiyot modeli chiqindilarni minimallashtirish, qayta ishlash va qayta foydalanish jarayonlarini rag'batlantirish orqali resurslardan eng yuqori darajada samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiyotning ekologik barqarorligini oshirish bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va yangi innovatsion imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar yashil iqtisodiyotga o'tishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsalar-da, ushbu jarayon ma'lum iqtisodiy va texnologik qiyinchiliklarni ham o'z ichiga oladi. Xususan, qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq dastlabki sarmoyaviy xarajatlar yuqoriligi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Biroq, uzoq muddatda bunday sarmoyalar o'zini oqlaydi, chunki ular energiya tejamlorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash orqali ijobiy natijalar beradi.

Xususan, Germaniya va Daniya yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida erishilgan yirik yutuqlari bilan ajralib turadi. Germaniya "Energiewende" dasturi orqali qayta tiklanadigan energiya ulushini sezilarli darajada oshirdi,



energiya samaradorligini kuchaytirdi hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda global yetakchilikni qo'lga kiritdi. Daniya esa shamol energetikasini rivojlantirish bo'yicha dunyoda ilg'or o'rinda turib, uglerod neytralikka erishish yo'lida muvaffaqiyatli natijalar ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatlar tajribasi yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham foydali ekanligini yaqqol isbotlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga o'tish tajribasi butun dunyo uchun bebaho tajriba va amaliy saboqlar manbai hisoblanadi. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali siyosat, qayta tiklanadigan energiya manbalariga yo'naltirilgan sarmoyalar, barqaror transport tizimlarini rivojlantirish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy o'sishning yangi imkoniyatlarini yaratish mumkin. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Bu yo'nalish mamlakatlar uchun yangi innovatsion yondashuvlarni, toza energiya texnologiyalarini va samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish imkonini beradi. Natijada, iqtisodiy o'sish ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashgan holda rivojlanadi. Shu bois, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat sayyoramizning ekologik muvozanatini saqlash uchun zarur, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham katta afzalliklarga ega yo'ldir. Har bir davlat, tashkilot va shaxs ushbu jarayonda faol ishtirok etishi, ekologik mas'uliyatni his qilgan holda harakat qilishi muhimdir. Keling, barchamiz birgalikda yashil iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etish orqali kelajak avlodlar uchun yanada farovon, barqaror va ekologik toza dunyo yaratish yo'lida sa'y-harakatlarimizni birlashtiraylik.

Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ilm-fan va innovatsiyalarning o'rni beqiyosdir. Yangi texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan qayta foydalanish orqali nafaqat ekologik zarar kamayadi, balki iqtisodiy samaradorlik ham sezilarli darajada oshadi. Shu jihatdan, ilmiy tadqiqotlar va texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ekologik startaplar va yashil biznes loyihalarini rag'batlantirish kelajakdagi iqtisodiy o'sishning barqaror poydevorini yaratadi. Universitetlar, ilmiy markazlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish esa yashil iqtisodiyotga o'tishning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etishda ta'lim va aholining ekologik madaniyatini oshirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar orasida ekologik tafakkurni shakllantirish, ularda atrof-muhitni asrashga bo'lgan mas'uliyatni kuchaytirish yashil iqtisodiyotning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun zarur shartdir. Shu sababli, davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ekologik ta'lim dasturlari, ijtimoiy kampaniyalar va ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlarini yanada faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Natijada, ekologik ongli va innovatsion tafakkurga ega avlodlar shakllanib, mamlakatning barqaror rivojlanish yo'nalishidagi salohiyati yanada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / Mualliflar jamoasi: R. O. Alimov, A. F. Rasulev, A. M. Qodirov va boshqalar // S. S. G'ulomov tahriri ostida. – Toshkent: "Konsauditinform-Nashr", 2006. – B. 95.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
3. Teshabayev T., G'ulyamov S. S., Xayitmatov U. T., Ayupov R. X. Raqamli iqtisodiyot va dasturlash asoslari: izohli lug'at. – Toshkent: "Davir Matbuot Savdo" MCHJ, 2021-yil. – 15,5 b.t.
4. G'ulyamov S. S., Shermuxamedov A. T., Xayitmatov U. T. Statisticheskii analiz sifrovoy ekonomiki v Uzbekistane. // "O'zbekiston transport tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy samaradorligini baholashning dolzarb masalalari" nomli Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman maqolalari to'plami. – Toshkent, 2021-yil. – B. 6–11.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
